

## YOSH RAHBAR KADRLAR TAYYORLASHDA XORIY TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

*Istamova Shahzoda Islom qizi**TerDU, Milliy libos va san'at fakulteti Madaniyat va san'at muassasalari boshqaruvi yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy yosh rahbar qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerakligi, bo'lajak rahbarlarni tayyorlashda xorijiy mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish yaxshi natijalarga olib kelishi haqida fikr yuritilgan va tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Madaniyat, san'at, menejment, taraqqiyot, innovatsiya, modernizatsiya, renessans, yoshlar.

**Kirish:** "Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim"- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Bugungi kunda davlat va jamiyat hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar hamda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda bilimli va tashabbuskor yosh kadrlarga ehtiyoj katta. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi va ichki siyosat yo'nalishlarini tushunadigan, tahlil eta oladigan, zamon bilan hamnafas, har bir innovatsion g'oyani qabul qila oladigan, shuningdek, islohotlarni qo'llabquvvatlab, davlat rivojiga har jihatdan o'z hissasini qo'sha oladigan kadrlarni tarbiyalash eng ustuvor vazifalardan biridir. Darhaqiqat, insoniyat ma'naviyati va tafakkuri rivojlanishi madaniyat va san'atsiz kechmaydi. Mamlakatimizda ham bu soha turli sabablar bilan yuksalish va deqsinish davrini boshidan o'tkazib keldi. Lekin so'nggi yillarda mazkur sohalarni rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarish yuzasidan hukumatimiz tomonidan tub o'zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda.

**Asosiy qism:** 2017-yil 31-mayda Muhtaram Prezidentimiz tomonidan "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" qaror imzolandi. Ushbu qarorda quyidagi masalalar ustuvor vazifalar sifatida belgilandi: - madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislariga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'rganish, bu borada kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy ilg'or tajribalardan foydalanish, dunyoning mashhur musiqachilari, bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish, madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalarini o'quv dasturlari va notalar, o'quv qo'llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash; - madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish. Jumladan, muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish. Moddiy madaniy meros va arxeologiya obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

- yoshlarni san'at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o'zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma'naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish kabi belgilangan vazifalar aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol



**Impact Factor: 9.9****ISSN-L: 2544-980X**

shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini oshirish uchun, birinchi navbatda, boshqaruvchi rahbarlar, umuman olganda, barcha kadrlarning yuqori saviyali hamda liderlik xususiyatiga ega bo'lishi talab etiladi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida barcha sohalarida yuqori darajada islohotlarning olib borilayotgani malakali va zamonaviy rahbar kadrlarga bo'lgan ehtiyojni orttirib yubordi. Bu esa, o'z navbatida, mazkur muammoni hal qilish yo'llarini izlashni talab etmoqda. Mamlakatimizda istiqloqlning dastlabki yillaridan, zamonaviy talablarga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash dolzarb masalalardan biriga aylandi. Zamonamizda yetuk va salohiyatli yosh rahbar kadrlar tayyorlash muammosi hali-hamon dolzarbligicha qolmoqda. Ho'sh zamonaviy yosh rahbar yuksak salohiyatga ega bo'lib qolmasdan birinchi o'rinda o'ziga hamda o'z hayotiga mas'ul shaxs bo'lmog'i lozim. Boisi, agar rahbar o'z hayotiga mas'uliyatli bo'la olsagina, qo'l ostidagi shaxslar uchun ham mas'ul bo'la oladi. Rahbar nafaqat boshqaruvchi, balki har xil vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs hisoblanadi. U rejalashtiradi, tashkillashtiradi, qo'l ostidagilarni qo'llab quvvatlaydi hamda nazorat qiladi. Aynan shu sababli ham rahbarlardan juda ko'p fazilatlar talab etiladi. Xalqaro mehnat tashkilotlari rahbarlaridan talab etiladigan fazilatlar ro'yxati:

1. Har bir rahbar tashkilotining asosiy muammosi nima ekanligini hamda xodimlarining bilim darajasini bilishi;
2. Professional hamda kasbiy bilimga ega bo'lishi;
3. To'g'ri va tezkor qaror qabul qila olishi;
4. Tashabbuskor hamda novator bo'lishi;
5. O'zining va o'zgarlaning tajribasiga tayangan holda xulosa chiqara olishi;
6. Kuchli xotiraga ega bo'lishi;
7. Yangi g'oyalarni amalga tadbiq eta olishi;
8. O'zgalarning fikrini va g'oyalarini eshitishga doimo vaqt ajratishi;
9. Xodimlari va ularning oilalarining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozimligi xalqaro tashkilotlar tomonidan bir ovozdan tasdiqlangan.

**Xulosa:** Rahbar doimo xodimlari bilan muloqotda bo'lishi, ularning talab va istaklaridan kelib chiqib qo'shimcha imkoniyatlar yaratib berishi lozim. Yuqorida ko'rsatilgan fazilatlarga asoslanib, bugungi kun yosh rahbarlarimizni shakllantirishimiz lozim. Hozirgi kunga kelib, yetuk rahbar yoshlarni tayyorlash nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa mamlakatlarda ham asosiy vazifalardan biri bo'lib turibdi. Masalan, Yaponiyada yosh rahbar xodimlar tayyorlash oliy o'quv yurtlaridan boshlanadi. Ya'ni, har bir talaba o'qish davrida biron bir tashkilot yoki davlat idorasida sinov muddatidagi ishchi sifatida faoliyatini boshlaydi va kasbiy malakasini yil sayin oshirib boradi. Oliy o'quv yurtida olayotgan nazariy bilimlarini amalda tadbiq qila oladi. Mamlakatimizda ham rahbar kadrlarni tayyorlashni oliy ta'lim muassasasidan boshlasak foydadan holi bo'lmas edi. Talabalar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda ham qo'llay olishlari hamda talabalik davridanoq tajribaga ega bo'lishlari mumkin. Har bir talabani o'zining sohasi doirasida faoliyat olib boruvchi tashkilot rahbarlariga birlashtirib qo'yilsa, uning ham malakasi ham tajribasi oshadi va rahbarlar doimiy ravishda o'z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan chuqur islohotlar, o'zgarishlar va yangiliklarni qabul qilishda hamda ularni hayotga tadbiq qilishda, yosh, bilimli, ziyarak, tashabbuskor kadrlarga ehtiyoj katta. Shunday ekan, har bir kadrlarni u xoh rahbar bo'lsin, xoh boshqa sohada faoliyat olib borsin, o'z sohasining yetuk mutaxassisi qilib tarbiyalash zarur. Yosh rahbar kadrlarni tayyorlashda nafaqat xorijiy davlatlar tajribasi, balki buyuk ota-bobolarimizning boshqaruvdagi tajribalaridan ham foydalanmog'imiz darkor.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori
2. O.Xasanov. “Liderlar kitobi”.- Toshkent: muharrir nashriyoti, 2020.-330 b
3. Sh.Razzoqov.“Rahbarlik san’ati”. T.: Lesson press nashriyoti, 2017.-118 b

